

TURKIY LUG'ATLARDA QO'LLANILGAN MEVA NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Hamroyeva Mastuna

TerDU, o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi turkiy lug'atlarda qo'llanilgan meva nomlarining qo'llanilishi metodlar yordamida yoritilgan, so'zliklarning lingvistik tahlili amalga oshirilgan va meva nomlari ma'lum bir guruhga ajratilgan holda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: "Devonu lug'otit turk", "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit turkiya", meva nomlari, qiyosiy tahlil metodi, fonetik-fonologik tahlil metodi, etimologik tahlil metodi, lingvistik tahlil.

Kundalik hayotimizda iste'mol qiladigan mevalarimizning qadimda qanday nomlar bilan atalgani barchamiz uchun qiziq. Mevalar nomlari har bir lug'atda o'ziga xos tarzda ifodalangan. Mevalarning nomlanishini XI–XIV asrlarda yaratilgan "Devonu lug'otit turk" (keyingi o'rinnlarda MK), "At-tuhfatuz zakiyati fil- lug'atit turkiya" (keyingi o'rinnlarda "At-tuhfat"), "O'zbek tilining etimologik lug'ati" kitoblaridan ko'rib chiqdik. "Devonu lug'otit turk" asari tildagi lug'atlar jamlanmasidir. Unda turli mavzuga oid lug'atlarni topishimiz mumkin. Ushbu lug'atda XI asrdagi shaharlar, qishloqlar, dengiz, ko'llar, turkiy qabilalar va urug'lar haqida, hayvonot, o'simliklar va ularning nomlanishi bilan bir qatorda meva unga aloqador so'zlarni ham uchratamiz. Lug'atlardagi meva va unga aloqador so'zlarning lingvistik tahlili amalga oshirildi. Bu tadqiqotda, fonetik-fonologik, qiyoslash-chog'ishtiruv, etimologik metodlaridan foydalandik.

Davr o'tishi bilan tilning barcha sathlarida bo'lgani kabi, leksikasida ham ma'noviy o'zgarishlar yuz beradi. Lug'atlardan meva va unga aloqador so'zlarni ko'rib chiqar ekanmiz, bitta so'zning ikkinchi lug'atda boshqacha nomlanishiga guvoh bo'ldik. Asarda meva nomlarining ifodalanishi turlichalikni ifoda etsa ham, so'zliklar o'sha davr nutqiy madaniyatidan darak berib turadi. Nigora Umirzoqova maqolasida, mevalarni meva qatining tuzilishiga ko'ra ikkita katta guruhga bo'lib tasnif qiladi:

1. Ho'l mevalar: olma, anor, shaftoli, nok, behi.
2. Quruq mevalar: pista, yong'oq, jiyyda, mayiz.

Qadimgi turkiy lug'atlarda mevalarning ikkita turini ham uchratamiz. "Devonu lug'otit turk"dagi awiya-behi(58b), alma – olma (o'g'uzcha) (65b) limkän – sariq olxo'ri (176b), "At-tuhfat"dagi xypmo (31b), armut – nashvoti (170b), juzum – uzum (206b), limun – limon (232b) kabi mevalar ho'l meva turiga misol bo'la oladi. Lug'atlardagi quruq mevalar turiga mansub so'zliklarni ko'rib o'tamiz. "Devonu

lug‘otit turk” asari ko‘zdan kechirilganda üskič – mayiz (78b), čipriqan-chilonjiyda (179b), pitrik – pista (arg‘ucha) (189b), šekirtük – pista (200b), yaqaq – yong‘oq (332b), yigdä – jiyda (333b), qaq – shaftoli va boshqa turdagı meva qoqi (376b) kabi quruq meva turlari ko’rib o’tildi. “At-tuhfat” asarida esa tojpa (eman daraxtining yong‘og‘i) (260b) faqat shu so‘z quruq meva turiga mansub deb topildi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, “At-tuhfat”da uchraydigan quruq meva nomlari “Devonu lug‘otit turk” da uchraydigan meva nomlariga qaraganda kamroq.

Lug‘atlardagi so‘zliklarni qiyoslash-chog‘ishtiruv metodidan foydalanib tahlil qilamiz. “Devonu lug‘otit turk”da tülüg erük – shaftoli (41b) ma’nosida qo‘llansa, “At-tuhfatda” шафтолї (51b), шафталї – shaftoli (275b), когам, коган – shaftoli (219b), cap ёрўк – shaftoli (244b) so‘zlari bitta shaftoli so‘zi ma’nosida qo‘llanadi. “Devoni lug‘otit turk”da üzüm – uzum (43b), “At-tuhfat”da јўзўм (87b), јузум (uzum) (206b) kabi so‘zlar bitta ma’noda ya’ni uzum ma’nosida qo‘llanilgan. Lug‘atlarni solishtirish natijasida bitta ma’nodagi so‘zning turlicha nomlanganiga guvoh bo‘ldik. Bundan tashqari bir so‘zning, bitta lug‘atda qo‘llanishida ham farqlar mavjudligi, bir so‘zning bir nechta so‘zlar orqali ifodalanishiga lug‘atlarni kuzatish jarayonida amin bo‘ldik. Masalan, “Devonu lug‘otit turk” asarida tarqa va talqa so‘zları g‘o‘ra uzum (171b) ma’nosini anglatadi. Olma so‘zi ham bir necha so‘zliklar orqali beriladi. M: alma – olma (og‘uzcha). Turklar almila deydilar (65-bet), almila – olma (69b) so‘zları orqali ko‘rsatiladi. Yoki yana olmaning qimiz, qimiz almila – qimizak olma, qimizga o‘xshash nordon olma (147b), senkäč – findik yong‘og‘i kattaligidagi shirin olma, qizil va oq bo‘ladi (181b) kabi turlari ham keltirilib o‘tilgan. Olxo‘ri so‘zi ham lug‘atda bir nechta so‘zlar orqali ifodalanadi. Masalan: qara erük – olxo‘ri(41b), amşuy – bir xil sariq olxo‘ri.(59b), limkän – sariq olxo‘ri.(176b). “At-tuhfat” asarida ham shunday farqlarga duch kelamiz. Masalan, шафталї – shaftoli (275b), когам – shaftoli, коган – shaftoli (219b), cap ёрўк – shaftoli (244b). Bitta shaftoli so‘zi bir nechta so‘zliklar orqali berilayapdi.

Turkiy lug‘atlar faqat tilshunoslikka doir bo‘lmasdan, tarix, etnografiya, geografiya kabi ko‘plab sohalar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar beruvchi mukammal qomusiy asar hisoblanadi. Bu lug‘atlar meva nomlarini ham aniqlashda muhim manbadir.

Qadimgi turkiy lug‘atlar turkiy tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasiga doir tadqiqot ishlari bilan ham qimmatli manba hisoblanadi. Lug‘atlarni ko‘zdan kechirish jarayonida ba’zi o‘xshash so‘zlarning, bitta fonema orqali farqlanishiga guvoh bo‘ldik. Lug‘atlarda uchraydigan so‘zliklarni fonetik-fonologik metod asosida tahlil qilamiz. “At-tuhfat” asarida shaftoli mevasi шафтолї (51b), шафталї (275b) ko‘rinishlarida uchraydi, bu yerda so‘zlar a va o fonemasi orqali farqlanyapti, yoki aynan shu meva когам (shaftoli), коган (shaftoli) (219b) shaklida kelib, m va n fonemasi orqali farqlanishga uchrayapti.

“Devonu lug‘otit turk” da olxo‘ri ma’nosida qara erük – olxo‘ri (41b), “At-tuhfat” da қора ёруқ (olxo‘ri) (229b) so‘zлari qo‘llanadi. Bu so‘zлar ham a va o fonemasi orqali farqlanishga uchraganini ko‘rishimiz mumkin. Bu so‘zning XI asrda a bilan talafuz qilinganini, oradan II asr vaqt o‘tib, o ga almashganiga lug‘atlarni solishtirish jarayonida amin bo‘ldik. Ular davr taqozasi bilan ma’lum bir o‘zgarishlarga uchragan. Bundan tashqari “At-tuhfat” da јёмиш – meva (96b) ma’nosida qo‘llanadi. Biroq bugungi kunda bu so‘zning ma’nosida o‘zgarish kuzatiladi. Ya’ni bu so‘z lug‘atda anglatgan ma’noda emas, boshqa ma’nolar qo‘llaniladi.

Tadqiqot davomida turkiy lug‘atlarda uchraydigan so‘zlarning etimologiyasiga ham nazar solindi. Bunda Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” 3 tomidan foydalanildi. “Devonu lug‘otit turk” da armut – nashvati, olmurut (51b) so‘zi qo‘llanadi, aynan shu so‘z “At-tuhfat” da армут (nashvoti) (170b) ma’nosida keltiriladi. Ikkala lug‘atda ham bitta so‘z, bir ma’noni anglatyapti, bu ularning o‘xhash jihatni, lekin bu so‘z “At-tuhfat” da bitta nashvoti ma’nosida qo‘llansa, “Devonu lug‘otit turk” asarida esa, ma’nosini kengayib nashvati va olmurut kabi ma’nolarda qo‘llanadi. Etimologik lug‘atdan bu so‘z ma’nosini ko‘zdan kechiramiz.

Olmurut. Bu ot fors tilida ‘och qizil’ ma’nosini anglatadigan [ol] sifati bilan (PRS, 36) ‘nok’ ma’nosini anglatadigan [morud] otidan (PRS, 485) tuzilgan bo‘lib, o‘zbek tiliga forscha o(o’) tovushini o‘zbekcha u tovushiga , d tovushini t tovushiga almashtirib olingan; ‘och qizil rangli nok’ ma’nosini anglatadi (O‘TIL, 1,534)(170b) kabi izohlanadi.

Lug‘atlardagi meva nomlari metodlar asosida tahlil etilar ekan, har bir lug‘at til xususiyatiga ko‘ra o‘ziga xoslikka ega ekanligining guvohi bo‘ldik.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, vaqtlar o‘tishi bilan so‘z ma’nosini kengayib boradi. Turkiy lug‘atlarda qo‘llanilgan nomlarning aksariyati hozirgi kunda ham ma’lum bir o‘zgarishlarga uchragan holda amaliyotda qo‘llanilib kelinmoqda. Meva nomlari lug‘atlarda turlicha ifodalangan, davrlar o‘tishi bilan lug‘atlar tarkibidagi meva nomlarini ifodalovchi so‘zlar, fonetik, leksik, grammatic o‘zgarishlarga uchragan. Lug‘atlar orqali biz meva nomlarining eski turkiy tilda qanday ma’no ifodalanishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Qadimgi turkiy lug‘atlar, keying davr tilshunosligi uchun poydevor vazifasini o‘taydi va yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk) – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2017.
2. At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya [turkiy (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.

3. Шавкат Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик лугати. III жилд. – Тошкент: Университет, 2009.
4. 111. Xidirova, I. ., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). Modern Science and Research, 2(3), 142–144.
5. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138–141.
6. www.ziyo.uz.